

*Muhammadiyah Gavhar Maxammadi qizi*

*Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tuman 14-maktab boshlang'ich sinf*

*o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada halol mehnat qilish, kasb tanlash masalasi va uning ijtimoiy psixologik ahamiyati, halol mehnat va insoniylik mezonlarining tanlanishi, halol kasb tanlashga ta'sir qiluvchi omillar ko'rsatilgan bo'lib, bunda o'quvchilarni halollik va halol mehnatga yo'naltirish, ularni mehnatsevar, halol qilib tarbiyalash masalalari yoritilgan. Shuningdek maqolada halol mehnatga munosabat omili mezonlari tanlanishining ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatlari hamda ularni tadqiq qilishning jihatlari o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *halollik, mehnat, kasb, motivatsiya, kasbga yo'naltirish, ta'lim, tarbiya, islohot, o'qituvchi, o'quvchi, innovatsiya.*

Ma'lumki, inson hayoti hamma vaqt jamiyat bilan uzviy bog'langan holda kechadi, inson undan ajralib yashashi mumkin emas. Inson o'z hayoti uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-bosh, turar-joy ta'minotini qadim-qadimdan yo'lga qo'yib kelgan. Shular jumlasiga tijorat, ziroat, chorvachilik, turli foydali kasb-hunar va tadbirkorlik ham kiradi. Dinimiz ta'limoti yalqovlik, boqimandalik kabi zararli illatlarni qat'iy qoralab, insonlarni halol rizq topish yo'lida sa'y-harakat qilish va chin-ixlos bilan mehnat qilib hayot kechirishga chorlaydi. Ajdodlarimizdan qolgan pandu-nasihati va o'g'itlarda barchani halol mehnat qilish, topilgan rizq-ro'zni ko'pchilik bilan birga baham ko'rish, Alloh bergan hayot va ne'matlariga doim shukr aytilish kabi solih amallarga chaqirilgan. Misol uchun "Mehnatning tagi rohat", "Qo'li ochiqning yo'li ochiq", "Shukri ko'pning rizqi ko'p" kabi ko'plab purma'no hikmatlarni zikr etishimiz mumkin.

Inson hayotida halol pok yurishi, Alloh taqdir qilgan hayotga rozi bo'lishi uchun biror kasbni ushlashi lozim. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak hamma

paygʻambarlar ham biror kasb egalari boʻlganlar. Odam alayhissalom dehqon, Idris alayhissalom garchi oʻzlari hakim zot boʻlsalarda tikuvchilik bilan shugʻullanganlar. Shu bilan birga birinchi kiyim tikkan va birinchi tikilgan narsani kiygan kishi boʻlganlar. Paygʻambar alayhissalom tijorat bilan shugʻullanganlar. Biz ummati Muhammadga lozim boʻladigan narsalarning eng afzali hayot chogʻimizda doim halol pok rizq qidirishimiz lozim. Alloh Taolo bandariga mehribon va rahmli Zotdir unga nima yaxshiyu nima yomon ekanini Oʻzi yaxshi biladi. Shuning uchun bizning rizqimizni, hayotimizni oʻz zimmasiga olgan zotdan rozi boʻlib yashamogʻimiz lozimdir.

Ma'lumki, har qanday kasbni puxta egallash, oʻz kasbining mohir ustasi boʻlish uchun ana shu kasbga taalluqli ilmni mukammal oʻzlashtirmoq kerak. Kasbga muhabbatli inson oʻz mehnatidan charchamaydi, balki rohatlanadi. Kasbi tufayli atrofdagilarga yordami tegsa, inson oʻzini baxtli hisoblaydi. Shuning barobarida Alloh taolo tomonidan ulugʻ ajru hasanotlar yuborilishiga munosib ekanini his qilish bilan ruhiyati yengil tortadi, imoni quvvat oladi. Mehnat — insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati; eng avvalo tabiat predmetlarini oʻzgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi. Mehnat kishilik jamiyati hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur boʻlgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi. Insonning faoliyati tufayli mehnat predmetlari mahsulotga aylanadi. Mehnat odamni hayvondan farqlantiradigan eng muhim belgidir. Mehnat tufayli inson tabiatdagi narsalarni oʻzgartiribgina qolmaydi, balki oʻzi ham kamol topadi, uning akliy va jismoniy qobiliyatlari oʻsadi. Mehnat jarayonida inson tabiat kuchlarini oʻz maqsadiga boʻysundiradi.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan Mehnat taqsimoti yuzaga keladi va borgan sari chuqurlashib boradi, Mehnatning yangi turlari yuzaga keladi, ular mustaqil vazifaga ega boʻladi. Mehnatdagi ixtisosla-shuv tufayli tabiat sirlari chuqur oʻrganiladi, tabiiy narsalar toʻlaroq ishlatiladi, hatto, ularniig xossalari oʻzgartiriladi. Mehnat taqsimotining darajasi jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning qay darajgia ekanligini ifodalaydi. Mehnat turlari yuzaga kelishi bilan Mehnat faoliyati natijalarini ayirboshlash, har xil mehnashi bir-biriga moslashtirish ehtisji tugʻiladi.

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

Bu esa mehnatga ijtimoiy tus beradi, chunki mahsulotlar va chizmatlar ko'pchilik mehnatining shpijasiga aylanadi. Shunday sharoitla Mni boshqarish tizimi yuzaga kelali na u maxsus vazifaga ega bo'ladi. Mehnat natijasi (mahsulot) tovar ta aylapgapda, ya'ni pul vositasi bilan ayir-boshlanganda Mehnatning kiymat yaratishdagi roli jihatidan konkret va abstrakt Mehnatga bo'linishi yuz beradi. Mehnat o'zining mazmuni va harakteri jihatidan aqliy, jismoniy, malakali (murakkab) va malakasiz (oddiy) Mehnatga bo'linadi. Mehnat tarbiyasi - tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, institutizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifat larni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham Mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan.

Mehnati tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, „mehnati ta'limi“, „kasbga yo'naltirish“, „politexnik ta'lim“, „kasb ta'limi“ singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnati tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilo-hiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnati tarbiyasi ga katta e'tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnati tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'zda tutilmagan. Mehnati tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi bilan oq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go'daklik bosqichiga o'tishlari bilan oq, ularga dastlabki Mehnati tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemtik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin.

Bolalarga mehnati tarbiyasi berishda bog'cha, maktab singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o'rin tutadi. Chunki bu muassasalarda Mehnati tarbiyasi

ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, akliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan yengil Mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og'ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va institutizom bo'lishiga qat'iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham yetarlicha Mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o'qish jarayonining o'zi og'ir akdiyjismoniy mehnatdir. Maktabga o'z vaqtida kelib-ketish, o'qish-yozishni o'rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o'quvchilarga Mehnat tarbiyasi berilgan bo'lishi kerak. Chunki o'quv topshiriqlarini bajarish, dars o'zlashtirish, o'tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko'chirmalar olish, lu-g'atlar bilan ishlay olishi uchun o'quvchi muayyan institutizomga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo'lishi, ishning ko'zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlarining ham o'rni katta. Chunki bu jarayonlarda o'quvchilar bevosita tegishli mehnat ko'nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo'llash bosqichini o'taydilar. Shuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo'nalishi o'ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. Shuning uchun ham mehnat ta'limi imkon qadar xilma-xil bo'lishi hamda o'quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlariga muvofiq kelishi zarur.

Aqliy mehnat — insonning tafakkur faoliyati. Bunga muhandis, vrach, agronom, o'qituvchi, olim va boshqa mehnati misol bo'ladi. Jismoniy Mehnat — insonning jismoniy faoliyati. Bunga ishchi, dehqon, kosib Mehnati misol bo'ladi. Malakali Mehnat maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Malakasiz Mehnat maxsus tayyorgarlikni va qobiliyatni talab etmaydi, mas, yuk tashuvchi, farrosh, qorovul Mehnat Fantexnika taraqqiyoti ta'sirida Mehnat vositalari mukammallashadi, xodimlarning mahorati, malakasi usadi, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, axborotlar texnologiyasini keng joriy etish va uni tashkil etishni tubdan takomillashtirish natijasida Mehnat mazmunining

muntazam o'zgarishi yuz beradi. Mehnatda har bir xodimning uzluksiz ta'lim va madaniy texnikaviy saviyasi hamda malakasi ortib borib, ham ijtimoiy, ham yakka tartibdagi mehmata samaradorligining uzluksiz o'sib borishi asosida aholining turmush darajasi oshadidir<sup>1</sup>

Xalqimizda mehnatdan kelsa boylik turmush bo'lar chiroylik degan ajoyib maqol bor. Albatta mehnat kishini ulug'laydi. Ammo mehnat qilish uchun ham kishida ilm, aqil, fahmu farosat bo'lishi kerak. Alloh taolo Baqara surasining 172-oyatida "Ey, imon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo'lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergan pokiza narsalardan yeb, Unga shukr qilingiz!"-deb marhamat qilganlar. Demak mehnatimiz halollik asosida bo'lishi va poklik mezonida o'lchanishligi kerak ekan. Tarixga nazar soladigan bo'lsak Odam (a.s) dehqonchilik, Idris (a.s) xattotlik, Nuh (a.s) durodgarlik, Dovud (a.s) esa temirchilik bilan shug'ullanishgan. Payg'ambarlar mehnat bilan shug'ullanib bizlarga o'rnak bo'lgan ekan, bizlar ham o'zimiz yoqtirgan kasbning ustasi bo'lib, oilamizni halol pokiza rizq bilan boqishimiz kerak. Imom Buxoriy rivoyat qilgan xadisda Payg'ambarimiz (s.a.v) shunday deganlar: "Kimki tilanchilik qilishdan saqlanish, oilasini boqish va qo'ni-qo'shnilariga muruvvat qilish maqsadida halol yo'l orqali rizq topish bilan mashg'ul bo'lsa, qiyomat kunida u Alloh taolaga yuzi to'lin oydek yorug' bo'lgan xolida yo'liqadi". Bu hadisi sharif har birimizning dasturul amalimiz bo'lishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki halol mehnat kishini ulug'laydi va jannat tamon yetaklaydi. Tabaroniy rivoyat qilgan xadisda Payg'ambarimiz (s.a.v) shunday marhamat qilganlar: "Gunohlar ichida shundaylari borki, unga faqat halol rizq topish maqsadida qilingan harakatgina kafforat bo'ladi". Shunday ekan kelajagimiz bo'lmish jondan aziz farzandlarimizga halol kasb hunar o'rgatib, hech qachon o'zgalarning xaqqiga ko'z tikmaydigan, vatani, xalqi, dini uchun jon fido qiladigan ruhda tarbiya qilmog'imiz lozim.

### **Adabiyotlar:**

1. Maxkamov U.I, Ismoilova D.M Tarbiya - yuksak ma'naviyat beshigi

2. G'oziev E.G.,. Umumiy psixologiya.–Toshkent: “O,,zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2010. – 544b
3. Maxkamov U.I, Ismoilova D.M Tarbiya- shaxs kamolotida eng katta kuch. Ta“lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar 5-son ISSN 2181-7286 2020 yil dekabr.
4. Maxkamov U.I, Ismoilova D.M Allomalar merosi – milliy tarbiya asosi “Xalq ta“limi” O,,zbekiston Respublikasi xalq ta“limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali ISSN 2181-7839 1-son, 2021 yil yanvar-fevral.